



ADABIYOT DARSLARIDA STEAM YONDASHUV (Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” asari misolida)

Razzakova Muqaddas Nurumbetovna
Qoraqalog‘iston Respublikasi Pedagogik
mahorat markazi Tillarni o‘qitish
metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: razzakovamuqaddas@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” asarini o‘qitishda STEM yondashuvini tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada STEM yo‘nalishlari – fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning adabiy matn bilan uyg‘unligi, o‘quvchilarning tanqidid, ilmiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Bundan tashqari, darsda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: STEM, adabiyot, integratsiya, innovatsion ta‘lim, chol va dengiz, tanqidiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности применения подхода STEM к преподаванию произведения Эрнеста Хемингуэя «Старик и море». В статье рассматривается интеграция дисциплин STEM (естественных наук, технологий, инженерии и математики) с литературными текстами и их роль в развитии критического, научного и творческого мышления учащихся. Кроме того, предлагаются задания, которые можно использовать на занятиях.

Ключевые слова: STEM, литература, интеграция, инновационное образование, старик и море, критическое мышление.

Annotation. This article discusses the possibilities of implementing a STEM approach in teaching Ernest Hemingway's "The Old Man and the Sea". The article discusses the integration of STEM disciplines - science, technology, engineering and mathematics - with a literary text, their role in developing students' critical, scientific and creative thinking. In addition, tasks that can be used in the lesson are proposed.

Key words: STEM, literature, integration, innovative education, the old man and the sea, critical thinking.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi o‘zgarishlardan biri ta‘limdagi STEAM yondashuvning yo‘lga qoyilayotganidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-5712-son farmoniga ko‘ra innovatsion ta‘lim jarayoniga o‘tish zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olish, AKT va ta‘lim berishning yangi metodlarini joriy etish, dars jarayonini STEAM ta‘lim texnologiyasi talablari asosida tashkil etish, STEAM fanlarini o‘qitish bo‘yicha kurslardan o‘tgan pedagoglar 2023-yilda 10%, 2030-yilga kelib 50%ga yetishi yangi kasbiy kompetensiyalarni



o'zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan. Zamonaviy ta'limning global rivojlanish jarayonlarida, fanlararo integratsiya o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan eng dolzarb yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, STEAM yondashuv (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limning turli fanlari – biologiya, fizika, texnologiya, matematika va hatto adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqani chuqurlashtirishga yordam beradi. Mazkur yondashuvning asosiy farqi shundaki, o'quvchilar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM yondashuv orqali fanlararo bog'liqlik rivojlanadi, real hayotdagi muammolarni hal qila olish ko'nikmalar shakllanadi, shu bilan birga o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi ortadi, o'ziga nisbatan ishonchi kuchayadi.

Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asari – bu oddiy baliqchi cholning yirik baliq bilan kurashidan iborat syujet emas, balki kuch, sabr, iroda, muammoga qarshi kurashish, tabiat bilan uyg'unlikda yashash kabi chuqur ma'naviy va falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan asardir. STEAM yondashuv bu asarni yangicha ko'z qarash, har bir tafsilotni chuqur tahlil qilish, voqealarni ilmiy va texnologik jihatdan o'rganish, real hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asari nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki ilmiy-texnik tafakkurni shakllantirish nuqtai nazaridan ham o'quvchilar uchun katta ahamiyatga ega. Asarda tasvirlangan tabiat manzaralari, biologik holatlar, texnologik vositalar va inson irodasining sinovlari STEAM yondashuvi asosida tahlil qilinsa, bu o'quvchilarda fanlararo integratsiyani, muammolarni hal qilish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyidagi topshiriqlar aynan ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali o'quvchilar asarni chuqurroq anglash bilan birga, amaliy bilimlarini ham mustahkamlashlari mumkin.

1. S (Science / Fan): Biologiya va ekologiya

Topshiriq:

Asarda tilga olingan marlin balig'ining tuzilishi, yashash muhiti haqida qisqacha ma'lumot to'plang va yozing. Akulalar va marlinlar o'rtasidagi biologik farqlarni taqqoslang.

Qo'shimcha savollar:

Marlin baliqlari qancha chuqurlikda yashaydi?

Akulalarning hid bilish qobiliyati qanday ishlaydi?

Dengiz hayotining muvozanati qanday buziladi?

Qo'shimcha savollarga javob topish orqali o'quvchi mustaqil izlanadi, savol berishga va ilmiy asosda mulohaza yuritishga o'rganadi.



2. Texnologiya (Technology)

Asarda baliq ovlash uchun foydalanilgan uskunalar juda oddiy, lekin har birining vazifasi chuqur ma'no kasb etadi. O'quvchilar asarda berilgan baliq ovlash qurollar bilan zamonaviy baliq ovlash vositalarini solishtiradi. Bu texnologik tahlil orqali o'quvchilar resurslardan foydalanish madaniyati haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladilar. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar asardagi har bir detalda yashiringan ramziy ma'nolarni ochib borish bilan birga, fanlararo bog'liqlikni anglaydi hamda real hayotga tatbiq eta oladigan bilimlarga ega bo'ladilar.

Topshiriq: Agar siz ushbu ov jarayonini dron yoki sun'iy intellekt orqali boshqarmoqchi bo'lsangiz, qanday qurilma ixtiro qilgan bo'ladingiz?

Bu topshiriq o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoni innovatsion yondashuv bilan hal etish, zamonaviy texnologiyalarni tushunish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, ular sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va ekologik muvozanat kabi tushunchalarni chuqurroq o'rganib, kelajak kasblariga tayyorgarlik ko'rishadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish, fanlararo integratsiyani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Muhandislik (Engineering)

O'quvchilar asarda tasvirlangan qayiq modelini asos qilib olib, qog'oz, karton yoki boshqa oddiy materiallardan foydalangan holda o'z qayig'ining modelini yaratishlari lozim. Modelni yaratish jarayonida quyidagi omillar inobatga olinishi talab etiladi:

- Konstruksiyada og'irlik markazi, suzuvchanlik va muvozanatni qanday ta'minlash mumkinligi;
- Qayiqqa qanday materiallar eng mos kelishi, ularning afzalliklari va tanlash sabablari.

Zarur resurslar:

Materiallar:

Karton, qog'oz, plastmassa bo'laklari, tayoqchalar, ip, elim, qaychi, lenta, ruchka yoki markerlar.

Texnik vositalar:

Lineyka, shablon, modellashtirish uchun oddiy 3D dastur (ixtiyoriy – masalan: Tinkercad yoki Google SketchUp).

Ma'lumot manbalari:

Asardan olingan qayiq tasviri yoki tavsifi.

Konstruktiv muvozanat va suzuvchanlikka oid qisqacha texnik tushunchalar (o'qituvchi taqdimoti yoki info-varaqlar orqali).



4. Matematika (Mathematics)

Asarda ko'plab masofaviy birliklar – 600 fut chuqurlik, 18 futli baliq, chilvir uzunligi va baliqning aylanish doiralari ko'rsatilgan. Ularni o'lchov birliklariga aylantirish orqali o'quvchilarning analitik salohiyati oshiriladi.

Topshiriq: Agar baliq 18 fut uzunlikda bo'lsa, bu metrda qancha? Agar chilvirning umumiy uzunligi 300 yard bo'lsa, baliq uni nechta doirada aylantirib o'zini qutqarishga urinadi?

Taqdim etilgan topshiriqlar orqali o'quvchilar "Chol va dengiz" asarini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Fanlararo integratsiyaga asoslangan bu yondashuv o'quvchilarning turli yo'nalishlardagi bilimlarini uyg'unlashtirish, amaliyotda qo'llash va mustaqil fikr yuritish malakasini rivojlantiradi. Shu bilan birga ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali muammoning mohiyatini tushunadi. Adabiyot, biologiya, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari o'rtasida bog'liqlikni anglaydi va ularni birgalikda tahlil qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, dasturlar va slayd-prezentatsiyalar orqali o'z bilimini ifodalashni o'rganadi hamda 4K modeli ya'ni guruhda ishlash, fikr almashish va o'z g'oyasini tushunarli ifoda qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA

"Chol va dengiz" asari nafaqat adabiy mahorat namunasi, balki o'quvchilarni ilm-fanga, ixtirochilikka, tabiatga hurmat va sabr-toqatga o'rgatuvchi boy manbadir. STEAM yondashuvi orqali bunday matnlar interfaol, muammoli, tahliliy o'rganiladi va bu esa ta'lim sifati va mazmunini yuksaltiradi. Hemingwayning asaridagi bir baliq va bir nafar chol timsolida biz butun insoniyat va tabiat o'rtasidagi kurashni, barqarorlik, g'urur, bardosh kabi qadriyatlarni ko'ramiz. Shu bois, adabiyotni STEAM asosida o'rganish faqat bilim emas, balki hayotiy pozitsiya va o'zgacha dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir <https://daryo.uz/2023/12/09/mamlakatni-qudratli-millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-talim-va-tarbiyadir> shavkat-mirziyoyev.
2. Chol va dengiz/Ernest Xeminguey. Tarjimon: Ibrohim G'ofurov.— Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.
3. Ulug'bek Hamdamov, Abdug'ofir Qosimov. Jahon adabiyoti (O'quv qo'llanma).— T.:—Barkamol fayz medial, 2017.—310- 311 b.
4. Adabiyot 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / Zulxumor Mirzayeva va boshqalar – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.